



**MADANIY DIPLOMATIYA: O'ZBEKISTONDA MADANIY MEROSNI
MUHOFAZA QILISH BO'YICHA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI**

Ma'muraxon Asrorxo'jayeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy diplomatiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, madaniy merosni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Madaniy merosni asrash, targ'ib qilish va undan diplomatik munosabatlarda samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. YUNESKO, IKOMOS, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlarning madaniy merosni muhofaza qilish va xalqaro muloqotni rivojlantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, madaniy diplomatiyaning yangi tendensiyalari va uning milliy manfaatlar hamda xalqaro nufuzini mustahkamlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: маданият дипломатия, маданият мерос, халқаро ҳамкорлик, дипломатик муносабатлар, халқаро ташкилотлар, ЮНЕСКО, ИКОМОС, ТУРКСОЙ, моддий ва номоддий маданият мерос.

**CULTURAL DIPLOMACY: ISSUES OF INTERNATIONAL
COOPERATION IN THE PROTECTION OF CULTURAL HERITAGE IN
UZBEKISTAN**

Asrorkhujaeva Mamurakhon Abrorkhuja qizi
Senior teacher, PhD
of Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation. This article analyzes the role and significance of cultural diplomacy within the modern system of international relations, as well as the issues of international cooperation in the field of cultural heritage protection. Theoretical and practical aspects of preserving, promoting, and effectively using cultural heritage in diplomatic relations are highlighted. Special attention is paid to the role of international organizations such as UNESCO, ICOMOS, and TURKSOY in safeguarding cultural heritage and fostering international dialogue. In addition, the article reveals new trends in cultural diplomacy

and its importance in strengthening national interests and enhancing international prestige.


Key words: cultural diplomacy, cultural heritage, international cooperation, diplomatic relations, international organizations, UNESCO, ICOMOS, TURKSOY, tangible and intangible cultural heritage.

Bugungi kun xalqaro munosabatlari davlatlarning turli sohalar bo'yicha ko'p tomonlama diplomatik aloqalari tabiiy ravishda kengayib borayotganini ko'rsatmoqda. Madaniy va tarixiy merosni tanitish – davlatlar va tashkilotlar diplomatik aloqalarining o'ziga xos tarkibiy qismiga aylanib borayotgani ayniqsa, yosh rivojlanayotgan davlatlar xalqaro hamkorligi sohasida yangi tendensiya hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi o'zining madaniy va ma'naviy merosi hajmi va qiymati bo'yicha takrorlanmas tarixiy yurt bo'lib, bu davlatimiz madaniyati, tarixi, dini va diplomatiyasi haqida so'zlovchi madaniy meros obyektlari, ma'naviy meros namunalarini saqlash, global miqyosda tanitish, targ'ib qilish nafaqat keyingi avlod balki, insoniyat oldidagi burch ekanligini bildiradi. Ahamiyatli jihati – madaniy merosni saqlash, tanitish bilan birga undan diplomatik munosabatlarning muhim vositasi sifatida foydalanish, ya'ni davlatlararo munosabatlarni yaxshilash hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiya faoliyatiga o'ziga xos impuls berishga xizmat qildirish hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida madaniy merosni asrash bo'yicha dunyo tajribasini o'rganish, tabiat, iqlim o'zgarishi hamda turizm oqimi ko'payishi natijasida va boshqa bir qator muammolarga samarali yechim topishda, O'zbekiston va YUNESKO o'rtasida madaniy merosni saqlash borasidagi hamkorlik Tashkilot doirasidagi ko'p tomonlama diplomatik aloqalari orasida asosiy o'rin tutadi. Tadqiqot orqali zamonaviy O'zbekiston va YUNESKO munosabatlarida madaniy merosni saqlash borasidagi diplomatik aloqalar yutuqlari va transformatsiyasini yanada aniq ko'rsatish mumkin.

Avvalo, madaniy meros – davlatlarning tarixiga shohid bo'lgan, tarixning o'zginasi bo'lgan o'ziga xos hikoyachi hisoblanadi. Uni saqlash bu, uni o'rganish demakdir. Madaniy merosni o'rganish har qanday davlatning asrlar oshgan tarixi, madaniyati, dini, tili, qadriyatlari, davlatchiligi va diplomatiyasining rivojlanishini o'rganishga yo'l ochadi. Birmingem universitetida bajarilgan falsafa doktori dissertatsiyasida, quyidagi diagramma keltirilgan¹:

¹ Djeysms Gared Deyvisning falsafa doktori dissertatsiyasidan, "Qadriyatlar doirasi" deb nomlangan diagramma. Muallif tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.



Bu diagrammaga ko'ra, har qaysi xalqning tarixiy merosini saqlash avvalo, mahalliy darajada amalga oshiriladi va uni himoya qilish yuqoridagi uzluksiz doiraga aylanadi. Bizning fikrimizcha esa, madaniy meros, xalqning tarixi bo'yicha mavjud bilimlarini ko'paytirishga nisbatan qiziqishni oshirishda katta rolni o'ynaydi. Bunga yoshlarni ushbu jarayonga jalb qilish orqali erishish ham mumkin. Shu tariqa ushbu diagramma yanada aniqroq o'z kuchini ko'rsatishi mumkin. Ya'ni harakatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish bilangina xalqning madaniy va tarixiy merosga, uni o'rganishga qiziqishini kuchaytirish mumkin. Natijada, madaniy merosni asrash ishlari ham sifat ham vaqt nuqtayi nazaridan yuqori darajaga ko'tariladi.

Dunyo tarixiy va madaniy merosini asrash katta ahamiyatga ega ekanligi I Jahon urushi davrida va tugallanishidan so'ng yaqqol ko'rindi. Tegishlicha, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishga bag'ishlangan dunyodagi ilk xalqaro konferensiya – 1931-yilda, Afina shahrida BMT qoshida 1922-yilda tashkil etilgan “Intellectual hamkorlik bo'yicha Xalqaro Kommisiya” tarafidan o'tkazilgan².

² Балматова Т.М. Роль культурного наследия в современной мировой политике // Вестник МГИМО–Университета. – 2022. – №2. – Р. 226–234.



T.Balmatovaning ta'kidlashicha, urush davrida madaniy mulk xavfsizligini ta'minlash, saqlash bo'yicha aniq talablarni xalqaro hamjamiyat faqatgina YUNESKO tashkilotini tuzib ishlab chiqqan³. Bu fikrga qo'shimcha sifatida, aynan YUNESKO tuzilishi bilan moddiy va nomoddiy merosini saqlash va tanitish faoliyati aniqlashtirilganini keltirish mumkin ya'ni merosning nomoddiy – ma'naviy shakllariga ham e'tibor berilib, uning ahamiyati moddiy merosga teng ekani, hech kam emasligi nazarda tutilyapti.

Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, uni asrashga yetarlicha ahamiyat bermaslik, yoki sovuqqonlik bilan yondashish (tarixiy merosga qasddan shikast yetkazilishi kabi jinoyatlar ham kuzatiladi) – xuddi shunday ko'lamdagi fojia hisoblanadi. YUNESKOning 2009-2017-yillardagi Bosh direktori ta'biri bilan aytganda, “madaniyat – davlatlarning davlatchiligini anglatuvchi muhim kategoriya bo'lib, davrimizda kuzatilayotgan “madaniy tozalash”, jamiyatning tarixi va xotirasini o'chirish orqali uning o'zini yo'q qilishga qaratilgan xatti-harakatdir”⁴.

Shu nuqtai nazardan, YUNESKO madaniy merosni himoya qilish va uni tanitishda diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishda davlatlar ko'p tomonlama diplomatiyasini amalga oshirish uchun imkoniyati va tajribasi nuqtayi nazaridan eng yirik global xalqaro maydon hisoblanadi⁵. Madaniyat insoniyat faoliyatining eng go'zal umumiy mahsuli bo'lishi bilan bir vaqtda, aksincha, har bir madaniyatning xilma xilligi, spetsifik xususiyatlarga egaligi bilan davlatlarning o'zaro diplomatiyasida uyg'unlikni uyg'otuvchi nihoyatda quvvatli kuch bo'lib xizmat qiladi. YUNESKO abbreviaturasidagi “S” harfi ingliz tilidagi “culture” – “madaniyat” atamasini ifoda etadi. Tashkilotning ilgari surishicha, madaniyat turli xususiyatlari bilan inklyuziv, innovatsion va mustahkam jamiyatlar qurish yoki ularni yanada mavjudlarini mustahkamlash vazifasini bajaradi. Shu tufayli, madaniy va tabiiy merosni asrash tadqiqot ishimizning avvalgi qismida keltirib o'tilgan doimiy taraqqiyot muammolari

³ O'sha yerda.

⁴Setting the Stage. Ms Irina Bokova, Director-General of UNESCO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232562>

⁵ Alisherkhujayeva M. UNESCO: United Nation's exceptional organization in its field // O'zbekiston va UNESCO: madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konf. mat-lari. – T.: TDSHU, –2022. – B.104–107.



bilan bir qatorda, zamonamizning tobora murakkablashayotgan o'tkir va yangidan yangi mojarolar va favqulodda vaziyatlariga chora topishda katta ahamiyatga ega⁶.

YUNESKO tomonidan tuzilgan 1978-yildagi Butunjahon merosi ilk ro'yxatida 12 ta obyekt bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda dunyo bo'ylab ushbu ro'yxatga kiritilgan madaniy meros obyektlari 1121 tani tashkil etgan. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 1199 obyektни tashkil qiladi, ulardan, 48 tasi transchegaraviy obyektlarni, 933 ta obyekt madaniy va 227 tabiiy meros, 39 tasi aralash obyektlari bo'lib, bu ro'yxatdagi 56 obyekt xavf ostida, 3 donasi esa ro'yxatdan chiqarilgan (Buyuk Britaniya hududidagi "Liverpool – dengiz tijorat markazi", Germaniya hududidagi "Drezden shahri Elba vodiysi", O'mon Sultonligi "Arab orikslari qo'riqxonasi") jahon merosi obyektlari hisoblanadi⁷.

Madaniy meros – zamonaviy davrda yoshlar, yangi avlod bilan ajdodlarni bog'lovchi ko'prik hisoblanadi. O'zbekiston milliy madaniy merosini asrash hamda tanitish, bugungi kunga kelib, nafaqat tarixiy va iqtisodiy jihatlama muhim ekanligi balki, davlat milliy diplomatiyasini zamonaviy ruhda olib borishda ham nihoyatda muhim resurs ekani e'tirof etilmoqda. O'zbekistonning yangi davri diplomatiyasida yangi tendensiyalar, trendlar hayotga tatbiq qilinayotganini ko'rsatmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasini ham zamonaviy diplomatik trendlar bilan boyib borayotgani amaliyotda kuzatilayotgan ijobiy yangilanishlardan sanaladi.

O'zbekistonning madaniy, tarixiy merosini o'rganish-muhofaza qilish borasidagi xalqaro hamkorlikning zamonaviy davriga oid ilmiy izlanishlarni ko'paytirish, rivojlantirish nihoyatda muhim. O'zbekiston bo'ylab joylashgan moddiy meros bilan bir qatorda ma'naviy merosni o'rganish, shu jumladan. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"⁸ deya ta'kidlandi.

⁶ Culture. Protecting Our Heritage and Fostering Creativity. Elektron manba. URL: <https://www.unesco.org/en/culture>

⁷ World Heritage List. Elektron manba. URL: <https://whc.unesco.org/en/list/>



Aslida, moddiy va madaniy meros har bir davlatning, uning xalqining asrlar, zamonlar oshib rivojlanib, moslashib kelayotgan – faqat ungagina xos bo‘lgan o‘ta ulkan xazinasini hisoblanadi. Uni saqlashda YUNESKO avvalo, byudjetdan tashqari bo‘lgan manbalarni jalb etish yo‘li bilan O‘zbekistonga :

- Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa joylarda joylashgan arxitektura yodgorliklarni rekonstruksiya va saqlashda;

- madaniyat sohasiga tegishli qonunchilikni takomillashtirishga;

- hukumati so‘roviga muvofiq muzey va kutubxona ishchilarini, madaniyat sohasidagi yurist, menejerlarni, mualliflik va tarmoqlararo huquqiy mutaxassislarni stajirovkalarga yuborish, seminarlar tashkillashtirish, axborot yetkazib berish orqali tayyorlash;

- keng ommaga O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlar madaniy va tarixiy merosini tanitishda, xususan, shtab kvartira binolarida ko‘rgazmalar o‘tkazish orqali yordam beradi;

- YUNESKO Jahon turizm tashkiloti (JTT) bilan birgalikda O‘zbekistonda turizm va madaniy turizm rivojlanishida yordamlashadi⁹.

E’tiborga molik jihati – ushbu memorandum imzolanishidan 2 yil o‘tiboq, YUNESKO rahnamoligidagi tadbirlarning birinchilaridan bo‘lib, tarixiy me’morliklar joylashgan mashhur shaharlar – Buxoro shahrining 2500-yilligi, shuningdek, Xiva shahrining 2500-yilligi 1997-yil¹⁰ shu shaharlarda va Parij shahridagi YUNESKO shtab kvartirasida o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi hisobotlarida qayd etilishicha, Parijda o‘tkazilgan Xiva, Buxoroning ushbu yubiley tadbirlarida O‘zbekistondan 50 nafar san’atkor ishtirok etgan¹¹. Bu tadbirlar, O‘zbekiston milliy va madaniy diplomatiyasi ijrosi amalda shakllanayotganini ko‘rsatayotgan edi. Shuningdek, Buxoro va Xiva shaharlari yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi – bu hududlarda joylashgan qator me’moriy majmualar, yodgorliklarning kapital ta’mirdan chiqishiga, ular atrofining obodonlashtirish ishlarini amalga oshishiga ham sabab bo‘ldi.

⁹ Меморандум о сотрудничестве между организацией Объединённых наций по вопросам образование, науки и культуры (ЮНЕСКО) и Республикой Узбекистан. – ЎЗР МА. – Фонд М –7. Рўйхат 1, иш 343. – В.130–137.

¹⁰ Сайфуллаев Д. Ўзбекистон маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (1991–2019): Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш», 2020. – Б.122.



YUNESKO shafeligida O'zbekiston qadimiy shaharlari yubileylarining nishonlanishi va ta'mirlash ishlari natijasida ular qiyofasi butunlay o'zgarib, qayta jonlanishiga sabab bo'ldi. 2002-yilda, Termiz shahrining 2500-yilligi va Shahrisabz shahri 2700-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. 2005-yilda Qarshi shahrining 2700-yilligi va Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 va Marg'ilon shahrining 2000-yilligi, 2009-yilda Toshkent shahri 2200-yilligi shular jumlasidandir. Bu yillarning o'ziga xos ahamiyati shundan iboratki, O'zbekiston madaniy merosini himoya qilish va tanitishdek muhim vazifani o'z ichiga olgan YUNESKO bilan hamkorlikning bu jihati jadal amalga oshirilganini ko'rsatib beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan, tomonlarning oldiga qo'ygan maqsadlari orasida, madaniy merosni himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik tizimi yaratilganini shu bilan birga xalqaro huquqiy normalarga ham qo'shilish ishlarini amalga oshirilganini ham sanab o'tish lozim¹². O'zbekiston Respublikasi umumiy hisobda YUNESKOning 7 ta xalqaro hujjatini ratifikatsiya qilgan. Bu borada batafsil oldingi paragraflarda keltiriladi.

Ma'lumotlarning tahlil etilishi natijasida, O'zbekiston diplomatiyasi dastlabki 10 yilliklarida – YUNESKO bilan hamkorlik juda faol rivojlanganini ko'rsatdi. Bu davr mobaynida madaniy merosni saqlash, fan va ta'lim sohasida faol hamkorlik olib borildi. Bu davr asosan O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimovning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, YUNESKO bilan o'ziga xos munosabatlar shakllanganini kuzatish mumkin. Masalan, 1998-yilda Prezident I.Karimov YUNESKO tomonidan "Avitsenna" oltin medali bilan taqdirlanganini keltirib o'tish mumkin¹³. YUNESKOning yana bir qator e'tiroflari va medallari avvalo, yurtimizning dunyo madaniyatiga qo'shgan bebaho hissasi, tarixiy ahamiyati va olib borilayotgan islohotlarning e'tirofini bildirgan. Mukofotlar qatorida, YUNESKOning O'zbekistonning madaniyati, tarixi va fan olamiga qo'shgan hissasi e'tirofi hisoblanmish "Samarqandning 2750-yilligi" oltin va kumush medallari, YUNESKOning "Borobodur" oltin medali, YUNESKOning "Ipak Yo'li" kumush medali, YUNESKOning "Aristotel" medali, YUNESKOning Fes

¹² Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: Муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари: Монография. –Т.: «Ҳамкорнашр», 2021. – Б.224.

¹³ Tarjimayi hol. Islom Karimov ilmiy-ma'rifiy majmuasi. URL: <http://www.islomkarimov.uz/uzc/page/tarjimai-hol>



(Marokash), Istanbul (Turkiya) shaharlarining yubileyleri va xotira sanalariga bag'ishlangan medallari shular jumlasidandir.

Madaniy merosni saqlashda YUNESKOga xos jihat bu – merosni mezonlariga ko'ra bir necha turga bo'lib moddiy va nomoddiy merosga ajratib ro'yxatga olish hisoblanadi. Bu amaliyot asosan dunyoning XX asr davomida ikki jahon urushini o'tkazishi – madaniy merosni kompleks himoya ostiga olish nihoyatda katta ahamiyat kasb etishining guvohi bo'lgandan so'ng boshlangan. Aslida YUNESKOning yaratilishi tarixi ham aynan talofotli jahon urushlari yakunida unga biriktirilgan vazifalar, jumladan, dunyo madaniy merosini asrashdek vazifalardan boshlangani ma'lum.

Xulosa qilgan holda, madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik madaniy diplomatiyaning ajralmas va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida davlatlararo munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Mavjud tajribalar, xususan, O'zbekistonning YUNESKO bilan olib borayotgan ko'p tomonlama aloqalari, milliy madaniyatni asrash va targ'ib etish yo'lida erishilgan yutuqlar, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Madaniy merosni saqlash nafaqat tarixiy xotirani avlodlarga yetkazish, balki zamonaviy diplomatiya vositasi sifatida millatlararo ishonch, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan jarayondir. Shu bois, madaniy diplomatiyani rivojlantirish va uni xalqaro hamkorlik siyosatiga chuqur integratsiya qilish, O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.